



## МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА МАКТАБГАЧА YOSHDAГИ BOLALAR UCHUN TA'LIMIY O'YINLARNING DIDAKTIK TA'MINOTINI YARATISHGA OID TURLI YONDOSHUVLAR

*Buriyeva A.N.*

*Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti*

*«Maktabgacha ta'lim» yo'nalishi 2-bosqich magistri*

**Tayanch so'zlar:** maktabgacha ta'lim, ta'limiy o'yin, didaktika, ta'minot, yondoshuv, markaz, rivojlantirish, o'yin, qobiliyat.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, обучающая игра, дидактика, предложение, подход, центр, игра, умение.

**Key words:** pre-school education, educational game, didactics, supply, approach, center, development, game, ability.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etilgan rivojlantirish markazlari tarbiyachilarga yosh bolalar bilan kengaytirilgan loyihalar orqali shug'ullanish imkonini beradi. Bolalar o'zlarining g'oyalari, hissiyotlari va kuzatuvlarini markazlarda cheklovlarsiz namoyon eta olishadi. Bolalarning biri-biriga ta'lim berishi, bir-biriga qarab o'rganishi, markazlarda ishlash jarayonida bolalar orasidan yangi liderlar yetishib chiqishi imkoniyati yaratiladi. Bolalar guruhdagi barcha markazlardagi jihozlar, o'yin, o'yinchoqlardan foydalanish huquqiga egadirlar.

Markazda bolalarning do'stlari orasida o'z fikrlarini bayon eta olishlari, mavzu asosida hikoyalar tuzish, savoljavoblar qilish, bolalarcha suhbatlar tashkil etish imkoniyati yaratiladi. Boladagi ko'pchilik orasida tortinchoqlik odatlari kichik guruhlarda ishlash jarayonida yo'qola boshlaydi. Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi orqali bolalarda sensor tarbiya, ijodkorlik rivojlanadi. Bola bir vazifani bajarish orqali ham qurish yasash, ham matematika bilan shug'ullanish imkoniga ega. O'z ishlarini tahlil qilishni o'rganadi. "Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish" markazida bolalar iqtidorini namoyon bo'lishiga, o'z mahoratini ko'rsatishi uchun juda qulay



muhit. Bu markazni bolaning “Men”ini shakllantiruvchi markaz deb ham atash mumkin. Markazdagi barcha jihozlar bolalar hayotida uchraydigan jihozlar bo‘lib, o‘yin jarayonida bola ulardan foydalanishni o‘rganadi. Har bir yosh guruhida bolalar yoshiga mos bo‘lgan syujetlirolli o‘yinlar, sahnalashtirilgan o‘yinlar bo‘lishi kerak.

“Fan va tabiat” markazida - tajriba sinov maydonchasida o‘tkazilayotgan tajribalar bolalarda qiziqish uyg‘otadi va yangi ixtirolar qilishga undaydi. Bu markaz bolalarni tabiat va undagi hodisalarni bilish uchun eng katta imkoniyat yaratadi. Bu markazni to‘g‘ri ishlatilsa bolalar tabiat haqidagi 90 foiz bilimni shu markazda olishi mumkin. Markaz na faqat bolalarda balki pedagoglarda ham qiziqish uyg‘otadi.

“San’at” markazida bolalarni kayfiyatini ko‘tarish imkoni mavjud bo‘lib, bolaning ijodiy qobiliyatlari qo‘llab quvvatlanadi. Bolalarda san’atning barcha turlari bilan tanishish imkoniyati yaratiladi. Bu markazda rasm, applikasiya, origami, loy ishi va qurish-yasash faoliyati amalga oshiriladi.

“Musiq va ritmika” markazi juda qiziqarli markaz hisoblanadi. Bunda bolalar o‘zlari hohlagan obrazlariga kirishi, hohlansa qo‘shiq aytishi, hohlansa cholg‘u asboblari kuy chalishi mumkin. Bu markazni burchak sifatida ham foydalanish mumkin. Lekin uni markaz qilib ishlatish ko‘proq ijobiy natijalar beradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining guruhlarda tashkil etiladigan ta’limiy tarbiyaviy jarayonlarni kuzatish, tahlil qilish orqali shunday xulosaga keldikki, har bir rivojlantirish markazlarida “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida ta’limiy o‘yinlar orqali bolalarning ijodiy qobiliyatlari rivojlanib boradi. Maktabgacha ta’lim yoshi shu yoshdagi bolalarni ijodkorlikka yo‘naltirishning oltin davri hisoblanadi. Bolalarga tug‘ilganda muloqot qilish, o‘rganish va rivojlanish uchun jismoniy, ijtimoiy, psixologik imkoniyatlar ijtimoiy muhitda yaratiladi. Bu imkoniyatlar o‘z vaqtida aniqlanib, qo‘llab-quvvatlansa, rivojlanib boradi. Bolalar bilan muntazam shug‘ullanish maktabgacha ta’lim tashkilotlarida davom ettiriladi va qobiliyatlarning rivojlanishiga asos bo‘ladi. Ko‘plab olib borilayotgan izlanishlar, maktabgacha yosh davrini ijodkorlikka yo‘naltirishning oltin davri deb hisoblashadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual moslashuvchanligi bevosita ularning ijodiy qobiliyatlari qay darajada shakllanganligiga bog‘liq. Shuningdek, ijobiy va muvaffaqiyatli natijalarni ko‘rsatishga bo‘lgan intilish ham bolalarda ijodiy fikrlash natijasida tarkib topishi kuzatuv va tajribalarda o‘z aksini topgan. O‘yinda bola o‘zi boshqa sharoitlarda haligacha qila olmaydigan narsaga egadir. Masalan, tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, o‘z xulqini boshqarish qobiliyati o‘yinda to‘g‘ridan-to‘g‘ri



topshiriq berishdan oldin paydo bo'ladi; o'yinda bolalar boshqa holatlarga qaraganda ko'proq so'zlarni eslashadi; o'yin motivatsiyasi bo'lganda bolalar tomonidan oddiy mehnat operatsiyalarini bajarish boshqa motivatsiya turlarida o'sha operatsiyalarni bajarishdan ko'ra samaraliroq bo'ladi. Syujetli va rolli o'yinlar jarayonida bolalar turli xil narsalardan foydalanadilar, ular bilan harakat qiladilar, ularni taqqoslaydilar, qiyoslaydilar, ularning ba'zi hislatlaridan chalg'iydilar va fikrlaydilar, boshqalarini hayol bilan qurib bitkazadilar, ba'zi predmetlarni boshqalar sifatida ishlatadilar. Bularning barchasi bolalarning sezgisini va his etishini yaxshilaydi, ularning tafakkuri rivojlanishiga yordam beradi, tasavvurlarini rivojlantiradi va chiniqtiradi.

O'yin, albatta, birgalikdagi faoliyatdir. Bu shuni anglatadiki, muvofiqlashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun bolalar o'yin davomida bir-biri bilan aloqa qilishlari kerak. Maktabgacha yoshdagi davrda, ehtimol, bir-biri bilan aloqa qilish zarurati yanada yorqinroq ifoda etiladigan boshqa faoliyat mavjud emas. Shuning uchun o'yin davomida nutq vositalarini mahorat bilan egallash maxsus motivatsiyaga ega bo'ladi. O'yinlar davomida bolalarning muloqot qilishi ularning nutqini rivojlantirishga (so'zlarning ma'nosini kengaytirish, tabiiy sharoitda nutqda mashq qilishga) yordam beradi.

Psixologiya tarixida bola faoliyatining bunday turiga ko'plap tushunchalar berilgan. Psixologlarning bir guruhi, o'yin bu istedodning instinktiv rivojlanishi, kelgusi jiddiy funksiyalarning anglanmagan mashg'ulotlari deb hisoblasa, boshqalari uni hursanchilikka yetish bilan bog'lansa, uchinchilari bu qizg'inlikni tutish usuli deyishsa, to'rtinchilari o'yin paytida olingan ma'lumotlarni tashlab yuborish jarayoni kechadi deb hisoblashadi. Bularning barchasi haqiqat. O'yin-bu bolaning olami va odamlar munasabatini anglash negizida yetgan narsalar faoliyatining o'zgacha turi ekanligi ham haqiqat. Agarda ikki va undan kattaroq yoshdagi bola o'yinni sevmasa, o'ynay olmasa-bu kichkintoy rivojlanishida nuqson mavjudligining ko'rsatkichidir, bolaning kasalmand holati yoki atrofidagi odamlar bilan muloqati nochorligining belgisidir. Psixologlar 5-6 yoshdagi bolalar bilan quyidagi tajribani o'tkazadilar: mutlaqo bo'sh xonalarga o'yinga o'rgatilgan va o'rgatilmagan bolalarni joylashtiradilar. Shundan so'ng ulardan o'ynashlarini so'rab, o'zlari yashirin kuzatuv yuritadilar. Aniqlanishicha, o'rgatilmagan bolalar bo'sh xonada bekor yurishadi yoki umuman harakat qilishmaydi. O'yin o'ynashini biluvchilar esa o'z navbatida nafatakak narsalarning, xatto o'yinchoqlarning umuman yo'qligiga ham qaramay ajoyib o'yinlar o'ynar edi, yolg'ondakam telefon orqali suhbatlashar, bo'tqa qaynatishar, toshoyna



oldida o'zlariga aro berishar, o'zlaricha samolyot, mashina haydashar va xakazo.

Bundan biz shunday xulosa chiqaramizki, bolalarni xar xil o'yinlar o'ynashga o'rgatib borishimiz kerak.

1. Haqiqiy o'yinchoqlar bilan o'yinlar ( qo'g'irchoqlar, mebellar, mashinalar bilan)

O'rnini bosadiganlar bilan (yog'ochlar , tosh, temirchalar bilan)

Tassavur qilishga asoslangan o'yinlar ( narsalarsiz)

Kundalik hayotda bu o'zaro bog'lik holda bo'lishi mumkin. Ammo, dastlab bizga sharoitlar yaratish haqida o'ylamog'imiz darkor, ya'ni o'yin materillarining mavjudligini aniqlashimiz kerak. Ko'p o'yinchoqlarning hojati yo'q, lekin bolalarning qiziqishi va yoshlarga mos keladigan o'yinchoqlar zarur bo'lib, o'yinchoqlar bilan o'ynaganda bolalarning qiziqishi va yoshi tadqiqot qilinishi kerak va undan katta yoshdagi bolaga quyidagi o'yinchoqlar tavsiya qilinadi.

- qo'g'irchoqli aravachalar
- ip orqali tortib yurgizadigan o'yinchoqlar
- qattiq varaqli kitoblar
- barcha o'lehdodagi to'plar
- odamlar va hayvonlar shaklidagi qo'g'irchoqlar va timsollar
- chelaklar, qumda o'ynaladigan to'plamlar
- mozaikalar
- plastmassali o'yinchoqlar va piramidalar
- o'yinchoq telefonlar
- har xil geometrik shakldagi teshiklari bo'lgan yog'och va plastmasa panellari (uch burchakli, o'tkir burchakli doira shakldagi) hamda ana shu shakldagi shakllar
- turli rangdagi kubiklar
- konstruksiyali va qurilish to'plamlari
- oilaviy hayotdagi ko'rinishlarni o'ynash uchun zarur bo'lgan syujetli rasmlar
- turli xil tovushlarni o'rganishi va taqqoslash imkoniyatini beruvchi musiqa asboblari: rubob, dutor, nay , karnay, doyra, chang.

Fabrikada ishlab chiqarilgan o'yinchoqlarga xo'jalik narsalarini qo'shish muhim ahamiyatga ega. Barcha shakl va o'lehdodagi bo'sh qutilar qopqoqli bankalar, ishdan chiqqan radiopriemniklar, qaydadir yuvilgan kiyimni osish uchun qisqich «temirchalar» va boshqa xo'jalik buyumlari.



Mavjud barcha o‘yinchoqlar bolaning qo‘l ostida bo‘lishi shart emas. O‘yinchoqlar va o‘yin uchun zarur materiallar mustaqil foydalanishda namunaviy tartibda bo‘lishi kerak. Bu bilan biz kattalar bolalarga tartibli, farosatli bo‘lishini o‘rgatamiz. Ikki yoshdan boshlab biz bolaga o‘yinchoqlarni joy-joyiga qo‘yishga o‘rgatamiz, dastlab birlikda, so‘ng bola buni uzi mustaqil bajaradi. O‘yinchoqlarning buzilishi barchaga ma‘lum. Shuning uchun ham biz ularni tashlab yubormasdan «O‘yinchoqlar shifoxonasi» burchagini tashkil qilishni tavsiya etamiz. O‘yinchoqni bolalar avvalgi holidan ham ko‘ra ko‘proq yaxshi ko‘ra boshlaydi.

Faqat quyidagilarni unitmaslik zarur:

- bolalar mustaqil o‘ynashni yaxshi ko‘rishadi.
- kattalar bilan o‘ynash esa ularning jonu dili.
- ammo, ko‘p vaqtlarda ular tengdoshlari bilan o‘ynashadi.

Bu yerda ularning insoniy muammolari va doimiy muloqatining modeli shakllanadi.

#### Adabiyotlar:

1. 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.
2. F.Qodirova ,Sh.Toshpo‘latova ,M.Kayumova, M.A‘zamova. Maktabgacha pedagogika. Toshkent-2019.
3. I.V. Grosheva, G.E. Djanpeisova, U.T. Mikailova, M.A. Kenjabayeva, N.A. Miftayeva. O‘yin orqali ta‘lim olish. T.:2020.
4. Qobilova Q. “O‘yining afzalliklari”.pptx. 2020 yil

#### РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ta‘limiy o‘yinlarning didaktik ta‘minotini yaratishga oid turli yondoshuvlar ko‘rib chiqilgan.

#### РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматриваются различные подходы к созданию дидактического обеспечения развивающих игр для дошкольников в дошкольных образовательных организациях.

#### SUMMARY

In this article, various approaches to the creation of didactic support of educational games for preschool children in preschool educational organizations are considered.